

Xodjayev Dilshod Xamidxonovich

NamDU doktoranti

E-mail: dilshod8282772@gmail.com

Izatullayeva Muqaddas Nosirxonova

Kosonsoy tuman MMT bo'limiga

qarashli 6-sonli maktab o'qituvchisi

УДК: 37.022(81'243)

**CHET TILINI O'RGANISH JARAYONIDA BADIY ADABIYOTLARNI
MUTOLAA QILISH VAMUTOLAA QILISHGA UNDOVCHI
MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI**

Anotatsiya: maqolada sinfdan tashqari o'qish o'quv faoliyatini tashkil etish, shu jumladan o'quv jarayonida motivatsiyaning asosiy shakllari va usullari ko'rib chiqiladi, bu o'qituvchiga o'quvchilarda chet tiliga qiziqishini oshirish va chet tilini keyinchalik kasb sifatida egallashga motivatsiya yaratish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: sinfdan tashqari o'qish, motiv, o'quv motivatsiyasi, motivatsiya usullari, kognetiv.

Ходжаев Дилшод Хамидхонович

Докторант Наманганского

Государственного Университета

Изатуллаева Мукаддас Носирхоновна

Учитель ООШ № 6 Касансайского района

**МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ МОТИВАЦИИ У УЧАЩИХСЯ К
ИЗУЧЕНИЮ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА ЧЕРЕЗ
ХУДОЖЕСТВЕННУЮ ЛИТЕРАТУРУ**

Аннотация: в статье рассмотрена организация внеклассной учебной деятельности, в том числе основные формы и методы мотивации в процессе

обучения, которая помогает учителю повысить интерес у учащихся к иностранному языку и мотивировать их к усвоению иностранного языка как будущей профессии, которое дает возможность им творчески развиваться.

Ключевые слова: внеаудиторное обучение, мотивация, мотивация обучения, методы мотивации, когнитив.

Khodjaev Dilshod Khamidkhanovich

PhD student of Namangan State

University

Izatullayeva Mukaddas Nosirkhonovna

Teacher at school № 6, Kasansay district

THE MECHANISM OF DEVELOPING MOTIVATION FOR LEARNING A FOREIGN LANGUAGE THROUGH READING ARTISTIC LITERATURE

Abstract: the article examines the organization of educational activities outside the classroom, including the main forms and methods of motivation in the educational process, which helps the teacher to increase students' interest in a foreign language and motivate them to acquire a foreign language as a profession. gives the opportunity to create.

Key words: study out of the classroom, motivation, learning motivation, motivation methods, cognitive.

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarning bo'sh vaqtlarini o'tkazishning ko'plab usullari paydo bo'lganligi sababli ular orasida kitob mutoalaasiga qiziqish pasaygan va bu yoshlarning ta'lim-tarbiyasida sizilarli salbiy tomondan bilinmoqda. Bu o'zgarishni payqagan davlat rahbarlari kitobxonlikga yoshlarni qayta kitob mutolaasiga qiziqtirish chora tadbirlarini ko'rishmoqda. Prezident tomonidan kitob mutolasi muhimligi, yoshlar, rahbarlar orasida buni targ'ib qilish lozimligi haqida ko'p bora aytiladi, aytilmoqda. Davlat rahbari tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari

surilgan 5 ta muhim tashabbusning bittasi aynan kitobxonlikka qaratilgan bo'lib, u yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. *"Kitob o'qigan, o'zini ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. "Kattalar"ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz. Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz"*, degan edi davlat rahbari [4].

Hozirgi globallashuv davrda har-bir soha vakillari bir birlari bilan hamkorlikda ishlash prinsiplari natijasida sohalarda rivojlanish sezilarli bo'lmoqda. Bunday hamkorlikdagi yutuqlarni har bir sohada kuzatish mumkin, ta'limdan tortib to kosmonavtikagacha. Bu jarayonda mutaxassislarning chet tilini bilishi muhim va asosiy jihat hisoblanadi. Mutaxassislik ko'nikmalarini oliy ta'limda, amaliyot jarayonlarida yoki mehnat jarayonida oshirish imkoniyat bo'lgani kabi chet tilidagi bilim va ko'nikmalarni ham muloqot jarayonida rivojlantirish mumkin, biroq muloqot jarayoniga kirishish uchun mutaxassisda fundamental, ya'ne o'quv jarayonlarida olgan bilim va ko'nikmasi bo'lishi lozim.

Har qanday fanga qiziqish bolada o'sha fanning mohiyatini tushunish orqali yoki o'quvchiga berilgan motivatsiya natijasida boshlanadi. O'quvchi qachonki fanni tushuna boshlasa shunda unda ushbu fanga qiziqishi ortadi, lekin ushbu fan bilan chuqurroq shug'ullanish xohishini unga beriladigan motivatsiya orqali shakillantiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maqolani yozish davrda yuqoridagi mavzuda, ya'ne badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish, mutolaa jarayonida chet tilidagi kompetensiyalarni rivojlanishi va badiiy asarlarni o'qishga undovchi motivatsiyalar ustidan ish olib borgan bir qator mahalliy va chet el olimlarining ishlarini o'rganib chiqdik. N. Zubaydova [18], Sh. Mamayoqubova[10], D. Temirova[16], M. Eshniyozova[6], O. To'raqulova[17], A. Sobirov[14], V. Negi, R. Anderson[1,13], H. Hu, T. Neyshn[8], M. Kuilan, V.

Kuk[3], R. Dey, J. Bemford[5], Y. Chen, Y. Hular[2] badiiy adabiyotlarni o'rganilayotgan chet tillida mutolaa qilish o'quvchilarda quydagi ijobiy jihatlarni rivojlantirishi tug'risida fikr yuritishgan:

- Lug'at boyligini kengaytiradi;
- O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantiradi;
- Autentik til materiali bilan tanishtiradi;
- Grammatik bilimlarni rivojlantiradi;
- Madaniyatga xos tushunchalarni rivojlantiradi;
- Tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi;

Tadqiqotning yana bir muhim jihatlaridan biri o'quvchilarni til o'rganish va chet tilida yozilgan badiiy asar va hikoyalarni o'qishga undovchi kuch haqida ham mulohaza yurutdik. Shu maqsadda bir qator ushbu mavzudagi asarlarni o'rganib chiqdik. Jumladan: M.G.Davletshin, E. G'oziev, G'.B.Shoumarov, V.A.Tokareva R.I.Sunnatova, A.A.Fayzullaev, A.K.Saitova, E.Z.Usmonova, M.Rasulova, F.I.Haydarov, M. Magomed-Eminov, D. M. Teylor, R. Meynard, R. C. Gardner, Dorney, K. Rojerslarning ilmiy ishlarida motivatsiyaning to'rtta turi bo'yicha fikr yuritilgan: intrinsik, ekstinsik, integrativ va instrumental. Ularning ilmiy ishlarida yuqoridagi motivatsiyaning turlari bir birlari bilan qiyoslangan va ularning boshqa biridan ustunligi yoritilgan [7.275-276].

TADDIQOT METADODOLOGIYASI

Har qanday talim-tarbiya jarayonida o'ziga xos metodlardan foydalanish o'z samarasini beradi. Faqatgina ushbu metodlarni tug'ri tanlay bilish lozim va o'z vaqtida qo'llay olish va qo'llanilgan metodni yakuniy natijalarini tahlil qilib borish lozim. Til o'rganish jarayonida motivatsiyaning o'rni beqiyos katta, chunki til o'rganish jarayoni ko'p harakat va uzoq davom etuvchi jarayondir. Chet tilini o'rganish jarayonida motivatsiyaning uch bosqichga ajratamiz, ta'limda muvaffaqiyat kaliti ushbu motivatsiyaning barcha bosqichlarini bajarishimizdadir. Kopchilik ustozlar va ota-onalar tomonidan motivatsiyaning faqatgina dastlabgi bosqichi qo'llaniladi (preaktiv- motivatsiyaning yaratilishi), lekin uning qolgan ikkita bosqichi o'quvchining muvaffaqiyatga erishishi dastlabgi bosqichdan ham

ko'proq ahamiyatlidir. Bular harakat davrida saqlab qolinadigan va harakatni to'xtatib qolmasligiga javob beruvchi va erishilgan yutuqni baholash mobaynida qo'llaniladigan motivatsiyalardir. O'quvchi psixologiyasi tez yengiluvchi va uning irodasi chidamsiz xisoblanganligi sababli qiziqish va katta ishtiyoq bilan boshlagan xatti – harakatini birinchi duch kelgan to'siq yoki murakkablikda, boshqa yanada qiziqroq va yengilroq jarayon oldida oldingisini davom ettirishni xoxlamasligi mumkin. Bunday holda pedagog va ota-onalar tomonidan motivatsiyaning ikkinchi bosqichi qo'llanishi lozim. Biroz bo'lsada qilayotgan amallaridagi yutuqlarini kattalashtirib o'quvchiga uning mehnatining samarasini unga sezdirmog'i kerak.

Biron bir chet tilini o'rganishda o'sha chet tilida yozilgan badiiy asar yoki hikoyalar o'qish o'quvchining o'rganish jarayonini yanada mazmunli jarayonga aylantiradi. Chunki dars jarayonlarida foydalaniladigan darsliklar o'quvchilarning o'rtacha qobiliyatlarini nazarda tutib tuziladi va dars jarayonida tilni chuqurlashtirib o'qitishga o'qituvchida yetarlicha vaqt va sharoit bo'lmaydi. Til o'rganish jarayonida o'quvchi ko'proq mustaqil tarzda o'z ustida ishlashi lozim. O'quv mashg'ulotlarida mustaqil olgan bilim va ko'nikmasini rivojlantiradi yoki yangi izlanishlarga motivatsiya oladi.

Badiiy hikoyalar yoki asarlarni o'quvchiga mutolaa qilishga berish dan avval quydagi metodlardan foydalanish lozim deb o'layman.

1. Badiiy asar yoki hikoya nomini berish va uni hali o'qimasdan avval sarlavhasi orqali muhokama qilish.

2. Posterlarni namoish qilish. Posterlarda asardagi qahramonlar, shaxar, voqea sodir bo'ladigan joy (kema, orol, o'rmon, fasl) nayon qilinib asar voqeeligini oldindan tahmin qilish.

3. Asardan olingan parchani o'quvchilar bilan o'qish va asarning ushbu parchagacha bo'lgan va undan so'ng sodir bo'ladigan sujetlarini bashorat qilish.

Asarni o'qib bo'lgach oquvchilar bilan uni muhokama qilish jarayonida teatralizatsiya, aqliy xujum, qahramonlarning ijobiy va salbiylarga ajratish, asarda eng yoqgan parchani ifodali o'qish va boshqa metodlardan foydalanishni tavsiya etamiz. Chunki harqanday muvofiqiyatning zaminida

sarxisob turadi.

Motiv - bu odamni harakat

qilishga majbur qiladigan ichki harakatlantiruvchi kuch. O'quv faoliyatida maktab o'quvchilarining o'rganishga bo'lgan intilishi, kognitiv muammolarni hal qilishga qiziqishi, tengdoshlaridan biron bir sohada ajralib, yoki ulardan ortda qolmaslik istagidir. O'quv jarayonining natijasi, samaradorligi va sifat xususiyatlari, bilimni o'quvchiga singdirish kuchi, fanga ishtiyoqi motivlarga bog'liq. Motivatsiyaga ega bola ideal o'quvchidir. Bugungi kunda har bir o'qituvchi ta'lim berish jarayonini davlat ta'lim standartini amaliy faoliyatda amalga oshirish yo'llarini topish zarurati bilan bog'liq muammolarni o'zi hal qiladi: darsni tashkillashda, darsda o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda, darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida, har bir o'quvchida kasbiy qiziqish, turli sohalarda mustaqil bilish jarayoniga intilish kabi xususiyatlarni inobatga oladi. O'qituvchilar dars jarayonlarini shunday tashkil etishlari kerakki, bunda o'quvchilarda dars mashg'ulotlarida ularning oldilariga qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish ishtiyoqi va intilishi shakillanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, o'rganish uchun motivatsiyani shakillanishiga o'quvchining yon atrofidagi shaxslar ma'suldir. Bu shaxslar maktabdagi o'qituvchi, ota-ona, do'stlar, hayotda yutiqqa erishgan biron bir kumiri yoki asar qahramonlar bo'lishi mumkin. Agar siz jarayonni to'g'ri va ijobiy rejalashtirsangiz, unda har qanday faoliyat turini rag'batlantirish mumkin. O'quvchining yon atrofidagi insonlar tomonidan beriladigan motivatsiyani eng foydalisi bu uni kitob o'qishga yo'naltirilganidir. Darsdan bo'sh paytlarida o'quvchi badiiy kitob o'qishga sarflagan vaqti unga kelajakda yorqin rag'batga aylanishi va kelgusidagi faoliyatiga juda katta ijobiy hissa bo'lishi hozirgi kunda yaqqol misol bo'lib kelmoqda. Badiiy kitoblarni chet tilida mutolaa qilishi o'sha til va madaniyatni chuqur o'rganishiga ulkan turtki bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida motiv va motivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun, birinchi navbatda, ushbu tushunchalarni tasniflash va tizimlashtirishdan boshlash kerak. Bu atamaning o'zi nafaqat ta'lim jarayoni uchun, balki psixologiyada ham muhim o'rin tutadi, chunki har qanday inson faoliyati va xatti-harakati u yoki bu motiv bilan belgilanadi. O'quvchilarga

beriladigan motivlarni tasniflash ustida rus va xorijiy psixologlar L. I. Bojovich, A. K. Markova, T. A. Ilyina, S. L. Rubinshteyn, J. Bruner, M. V. Matyuxina J. Rozenfeldlar ish olib bordilar. Ushbu atamani o'rganishning qiyinligi yagona tasniflash printsipining yo'qligidadir. Bu T.A.Ilyina tomonidan taklif qilingan to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantiruvchi, istiqbolli motivatsiya yoki intellektual motivatsiya bo'lishi mumkin [15. 288-b]. J.Rozenfeld ta'lim motivatsiyasining uchta jihatini ko'rib chiqib, quyidagilarni aniqlaydi: qiymatli, maqsadli va yo'naltiruvchi jihatlar [10. 48-b]. A.K.Markovaning fikriga ko'ra tizimlashtirish faoliyatning o'ziga bo'lgan munosabatni tavsiflaydi. Tashqi motivlar – o'quvchining faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan yoki ijtimoiy, ichki, o'quvchining faoliyati bilan bog'liq yoki boshqacha aytganda, kognitiv bo'ladi [12. 192-b].

TAHLIL VA

NATIJALAR

Chet tilni umumiy o'rta ta'lim

jarayonida o'qitilishning o'rganib chiqilganda shu ma'lum bo'ldiki, bugungi kundagi darsliklarda badiiy adabiyotlarning mutolaasiga etibor qaratilmagan, darsliklarda faqatgina internet saytlaridan olingan matnlardan foydalanilgan. Tug'ri bu matnlarni o'qish orqali o'quvchi lug'at boyligini, ma'lumotlar bazasini kengaytirishi yoki grammatik konstruksiyalarni o'rganishi mumkin, biroq tanqidiy fikrlash, tasavvur ongini shakllanish, xis-tuyg'u kabi xususiyatlari rivojlanmaydi degan fikrdamiz. Umumiy o'rta ta'limda davlat ta'lim standartlarini bajarish va zamonaviy ta'lim jarayoni maqsadlarini amalga oshirish uchun bevosita o'quv material mazmuniga va muammolarni hal qilish uchun faoliyatga qaratilgan ichki, shaxsiy va kognitiv motivlarni shakllantirish kerak. Har bir o'quvchi bir nechta motivlarga ega bo'ladi, chunki o'quv faoliyati ko'p motivli hisoblanadi. Masalan, ingliz tilini o'rganishda maktab o'quvchilari quyidagi turdagi tashqi motivatsiyaga ega bo'lishi mumkin: ingliz tilida gapira olish, mening bilimli odam haqidagi fikrlarimga mos keladi, ota-onam bu tilni bilishadi va men ular kabi bo'lishni xohlayman, men uni boshqalardan farqli tarzda o'rganaman, men yaxshi baho olishni xohlayman, o'rtoqlarimdan yomonroq bo'lishni xohlamayman.

Ammo motivatsiya har doim uzoq vaqt davomida beqaror bo'lib qoladi.

O'qituvchining vazifasi chet tilini o'rganish jarayonida motivatsiyani saqlab qolish uchun mos ish usullari va shakllarini topishdir. Badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish va ulardagi qahramonlar yuzasidan ustoz va tengdoshlari bilan baxs munozara olib borish chet tilini o'rganish uchun berilgan motivatsiyasini rivojlantirish mexanizmi hisoblanadi. Badiiy adabiyotlarni o'qish o'quvchilarning kommunikativ va kognitiv faoliyatining eng muhim turlaridan biridir. Aynan adabiyotlarni mutolaa qilish maktab o'quvchilarining bilim olishi va har tomonlama rivojlanishi uchun eng katta imkoniyatlarni beradi; mutolaa insonning baholash va axloqiy pozitsiyasini shakllantiradi, bu jarayon universal mahoratdir. Bu jarayonda chet tili fani o'qituvchisi passiv ishtirokchiga aylanadi, faqatgina o'quvchiga dastlabki mutolaa qilish uchun turtgini berishi lozim. Agarda sinfdagi o'quvchilarning har biri o'zlari tomonidan tanlangan asarlarni mustaqil tarzda mutolaa qilib borishsa o'quvchilarning lug'at boyliklari osha boradi. Bilamizki chet tilini o'rganishdagi asosiy qism bu lug'at boyligi va lug'at boyligini oshirish uchun o'qituvchi va o'quvchidan ko'p vaqt va harakat talab etiladi. O'qish maqsadiga qarab, o'quvchilar turli xil o'qish turlaridan foydalanishni o'rganishlari kerak. Uslubiy adabiyotlarda keltirilgan o'qish turlarini va ularning chet tilini o'rganish motivatsiyasini shakllantirishdagi mumkin bo'lgan rolini ko'rib chiqaylik. Faoliyatning maqsadli yo'nalishiga ko'ra, o'qish quydagi maqsadlardan iborat: kirish, ko'rish, o'rganish, izlash, bilish. O'qilayotgan asarni mazmunni ochish quydagi usullardan iborat: analitik, sintetik, tarjima qilingan, tarjima qilinmagan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki:

1. O'qituvchi o'quvchilarga chet tilini badiiy adabiyotlar orqali qiziqtirish maqsadi taklif etilishi kerak.
2. Motivatsiya metodlariga etiborini kuchaytirish va o'quvchilarga moslashtirishi lozim.
3. Ichki motivatsiyaga mos tushadigan treninglarni bu jarayonga bo'lashi lozim.

4. Yuqori sinf o'quvchilarini badiiy asarlarni o'qishni qiziqtirish uchun o'qilgan asarlar yuzasidan breinringlar uyushtirish.
5. Mutolaa qilingan asar va xikoyalarni muhokama jarayonida aqliy xujumusulidan foydalanish zarurligini o'rganib chiqdik.

Sinfdan tashqari kitob mutolaasi o'qituvchiga qiziqishni oshirish va chet tilini keyingi o'rganish uchun motiv yaratish uchun ko'proq imkoniyatlar beradi, chunki dars tushuntirish va illyustrativ o'qitish usuliga emas, balki ijodiy vazifalarga asoslanadi. Chunki o'quvchilarda qidiruv va tadqiqot tabiatan shakillangan bo'ladi, bu o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etilishiga sabab bo'ladi. Va nihoyat, o'qish nafaqat chet tilini o'zlashtirish va boshqa madaniyatni kashf etishni ta'minlaydi, o'z-o'zini tarbiyalash va ijodiy faoliyat vositasidir. Chet tilida o'qish o'quvchilar uchun ma'lum bir fan bo'yicha mustaqil ta'lim faoliyatining yetakchi vositasi bo'lib, uning muvaffaqiyati motivatsiyani shakillantiradi!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson R. C. Some reflections on the acquisition of knowledge. Educational Researcher. – 1981
2. Chen, Y. H., & Hu, Y. C. Language and culture learning through reading. Reading in a Foreign Language. – 2007. – №19(1).
3. Cook V. Using the first language in the classroom //Canadian modern language review. –2001. – T. 57. – №. 3.
4. daryo.uzsayti
5. Day R. R., Extensive reading in the second language classroom //RELJ Journal. –1998. – T. 29. – №. 2.
6. Eshniyozova M., The Role of Alisher Navai's Wisdom in Forming the Worldview of Preschool Students// European Journal of Innovation in Nonformal Education: Vol. 5 No. 1. 2025 y.
7. F.I. Haydarov, N.I. Xalilova. Umumiy psixologiya. –T.: 2010-yil. 275-276-b
8. Hue H. C., Nation P. Unknown word density and reading comprehension //Reading in a Foreign Language. – 2000. – T. 13.

9. Lenskaya E. A., Rozanova E. D. O'qish chet tilini o'rgatish vositasi sifatida // Maktabda chet tillari. - 1981. - No
10. Mamayoqubova Sh. O., Ingliz tilini o'rganishda yo'l qo'yiladigan ba'zi xatolar// Научный Фокус. Том 1 № 9. 2024 г. 48-b.
11. Milman V. E. Shaxsning motivatsion sohasini o'rganish usuli / Psixodiagnostika bo'yicha seminar. Motivatsiya va o'z-o'zini tartibga solishning psixodiagnostikasi. - M., 1990.
12. Markova A.K., T.A. Matis, A.B. Orlov o'quv motivatsiyasini shakllantirish // O'qituvchilar uchun kitob. M.: Ta'lim, 1990.- 192 b.
13. Nagy W. E., Anderson R. C. How many words are there in printed school English? // Reading research quarterly. – 1984.
14. Sobirov A. Sh., Til Tadqiqida Zamonaviy Yo'nalishlar: Kognitiv Tilshunoslik, Pragmalingvistika, Lingvokulturalogiya, Sotsiolingvistika, Lingvoetika, Psixolingvistika// "LISONIY MEROS VA TILSHUNOSLIK TARAQQIYOTI" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jild 1 № 3. 2024 y.
15. Talyzina N.F. Pedagogik psixologiya: Darslik. talabalar uchun yordam o'rtacha ped. darslik muassasalar. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 1998. - 288 b.
16. Temirova J., РОЛЬ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИМИТАЦИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ОБУЧАЕМЫХ// Центр Научных Публикаций (buxdu. uz)-2023 г.
17. To'raqulova I.X., Ta'lim muassasalarida o'quvchilarga ma'naviy-immunologik tarbiya berish: Toshkent- 2014 y.
18. Zubaydova N. N., The teaching of English for specific purposes// Scientific researches for development future International Conference Proceedings. - 2019 y.